



BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2021- YIL YANVAR-SENTYABR
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: 65-220-83-06

Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 13402,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 99,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (94,7 %)ni tashkil etdi.



B–Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, *C*–Ishlab chiqaradigan sanoat *D*–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, *E*–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 2,8% ga hamda suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning – 4,0 % ga pasayishi kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-sentyabr oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 268,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,0 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentyabr	2021- yil yanvar-sentyabr	Farqi +/-
Oltinugurt , t.	857,0	938,0	81,0
Shagʻal , t.	35711,0	14000,0	-21711,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bogʻliq burgʻilash xizmatlari, mln. soʻm.	118017,3	125074,9	7057,6

Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-sentyabr oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12695,8 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,7 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020- yilning yanvar-sentyabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,9 % (1,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 52,8 % (59,8 %) va quyi texnologiyalisi – 45,2 % (38,2 %) ni tashkil etdi.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 39,7 % (2020- yil yanvar- sentyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 65,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 22,7 % (2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 116,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,6 % (2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 111,0 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 6,8 % (2020- yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 139,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-sentyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 640,3 ming tonna avtomobil benzini (2020- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 3,3 % ga o'sgan), 17,2 ming tonna kalava ip (8,0 %), 1645,4 ming litr aroq mahsulotlari (62,6 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentyabr	2021- yil yanvar-sentyabr	Farqi +/-
Mazut, ming t.	78,0	58,1	-19,9
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	8167,7	7397,6	-770,1
Paxta,tolasi, t.	59717,6	58957,0	-760,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	68427,2	64289,8	-4137,4
Quyish uchun tayyor beton,t.	23098,1	5388,9	-17709,2
Avtomobil benzini,ming t.	620,1	640,3	20,2
Paxta chigiti, t.	92097,8	85583,0	-6514,8
Yig'ma konstruksiyalar elementlari, t.	17331,8	22865,9	5534,1
Dizel yoqilg'isi, ming t.	459,8	332,6	-127,2

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish
(2021- yil yanvar-sentyabr)


<p>FHI % da</p> <p>115,1% 2019- y.</p> <p>121,0% 2020- y.</p> <p>65,3 % 2021- y.</p>	<p>2020- yilning yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari sanoatdagi ulushi 49,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 121,0 % ni tashkil etgan.</p> <p>Shuningdek, 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida sanoatdagi ulushi 39,7 % ni, fizik hajm indeksi 34,7 % ga kamayib, ishlab chiqarish hajmi 5321,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.</p>
--	--

To'qimachilik, kiyim va teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-sentyabr)

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-sentyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,3% ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 121,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,7 % ni, fizik hajm indeksi 16,7 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3048,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-sentyabr)

Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-sentyabr oylarida oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,9 % ni tashkil etgan bo'lsa,


2021- yilning yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 11,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 2492,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(2021- yil yanvar-sentyabr)


Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-sentyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning sanoat tarkibidagi ulushi 6,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 39,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 908,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-sentyabr)


Jami sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-sentyabr oylarida ushbu yo'nalishda mahsulot ishlab chiqarishning ulushi 2,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko'ra, shu turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 42,3 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 311,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida

mlrd.
so'm



FHI
% da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 323,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,4 % ini) tashkil etdi.


2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da

2020- y.




2021- y.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentyabr	2021- yil yanvar-sentyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4,8	5,4	0,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	537,1	558,3	21,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 114,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar- sentyabr	2021- yil yanvar- sentyabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	6772,2	13431,0	6658,8
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	378,7	366,0	-12,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 98,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5910,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 23,9 % ga oshdi, uning jami sanoatdagi ulushi 44,1 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 2,7 % (2020- yil yanvar-sentyabr oylarida 2,1 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 19,9 % ni, shuningdek, Buxoro shahri 19,0% ni, G'ijduvon tumani 11,4 % ni, Jondor tumani 8,7 % ni, Romitan tumani 5,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (123,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kogon (164,5 %), Peshku (157,3 %), Olot (151,7 %) va Shofirkon (143,8 %) hamda Jondor (140,1 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	5910,9	100,0	123,9
Buxoro viloyati			
	172,2	2,9	151,7
Olot			
	215,9	3,7	157,3
Peshku			
	284,9	4,8	107,4
Buxoro			
	304,2	5,1	141,6
Romitan			
	273,6	4,6	106,3
Vobkent			
	513,5	8,7	140,1
Jondor			
	676,2	11,4	119,7
G'ijduvon			
	304,3	5,2	143,8
Shofirkon			
	399,7	6,8	164,5
Kogon			
	1124,2	19,0	131,7
Buxoro sh.			
	235,2	4,0	102,9
Qorako'l			
	233,2	3,9	113,1
Kogon sh.			
	1173,8	19,9	106,0
Qorovulbozor			

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, 30,5 % ni, shuningdek Buxoro shahri 19,1 % ni, G'ijduvon tumani 11,2 % ni hamda Kogon tumani 6,1 %, Romitan tumani 5,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Shofirkon (185,2 %), Peshku (164,1 %), Romitan (161,9 %) va Jondor (153,6 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	3751,7	100,0	126,2
Buxoro viloyati			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	99,5	2,6	150,7
Olot			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	210,8	5,6	161,9
Romitan			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	200,4	5,3	115,2
Vobkent			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	174,6	4,7	153,6
Jondor			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	418,5	11,2	132,6
G'ijduvon			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	146,1	3,9	185,2
Shofirkon			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	228,0	6,1	128,1
Kogon			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	715,1	19,1	145,9
Buxoro sh.			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	71,2	1,9	95,5
Qorako'l			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	101,2	2,7	124,4
Kogon sh.			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1143,8	30,5	106,0
Qorovulbozor			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, 19,0 % ni, shuningdek, Jondor tumani 15,7 % ni, G'ijduvon tumani 11,9 % ni, Kogon tumani 8,0 %, Qorako'l tumani 7,6 % tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Kogon tumanida (2,6 m.), Olot tumanida (153,0 %) hamda Peshku tumanida (152,0 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	2159,2	100,0	120,2				
Buxoro viloyati							
	72,7	3,4	153,0		117,4	5,4	152,0
Olot				Peshku			
	140,9	6,5	105,0		93,4	4,3	110,3
Buxoro				Romitan			
	73,2	3,4	87,8		338,9	15,7	134,0
Vobkent				Jondor			
	257,7	11,9	103,5		158,2	7,3	119,1
G'ijduvon				Shofirkon			
	171,7	8,0	2,6 m.		409,1	19,0	112,5
Kogon				Buxoro sh.			
	164,0	7,6	106,5		132,0	6,1	105,8
Qorako'l				Kogon sh.			
	30,0	1,4	107,0				
Qorovulbozor							

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**
2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1303,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 9,7 % ni tashkil etdi.

Buxoro viloyati hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarishi hajmlari
 2021- yil yanvar-sentyabr oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	13402,6	100,0	99,7
Buxoro viloyati *			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	399,1	3,0	110,0
Olot			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	330,7	2,5	109,3
Peshku			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	323,6	2,4	100,4
Buxoro			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	793,3	5,9	103,7
Romitan			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	314,4	2,3	103,1
Vobkent			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	638,1	4,8	111,2
Jondor			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1000,0	7,5	103,1
G'ijduvon			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	494,5	3,7	111,1
Shofirkon			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	784,6	5,9	117,3
Kogon			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1814,2	13,5	107,7
Buxoro sh.			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	420,7	3,1	103,8
Qorako'l			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	579,8	4,3	105,2
Kogon sh.			
	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	5509,6	41,1	90,8
Qorovulbozor			

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

**Buxoro viloyati hududlari kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kogon tumanida (2020- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 117,3 %), Jondor tumanida (111,2 %), Shofirkon (111,1 %) va Olot (110,0 %) tumanida sezilarli darajada oshdi.

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'tgan yilning shu davriga nisbatan pasayish omili bolib Qorovulbozor (2020- yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 90,8 %) tumanida ishlab chiqarish hajmlarining kamayishi kuzatildi.

Buxoro viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Qorovulbozor tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 41,1 % i), Buxoro shahri (13,5 %), G'ijduvon tumani (7,5 %), Romitan tumani (5,9 %), Kogon tumani (5,9 %) hamda Jondor tumani (4,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Vobkent (2,3 %) hamda Buxoro (2,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.





Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (294 853,4 ming so'm), Kogon tumani (9 810,5 ming so'm) va Kogon shahri (9 376,9 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (6 846,1 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 019,4 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 62 817,5 ming so'mni, Kogon tumanida – 4 997,7 ming so'mni, Buxoro shahrida – 3 982,4 ming so'mni, Kogon shahrida 3 771,4 ming so'mni tashkil etdi.


**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**
2021- yil yanvar-sentyabr, ming so'm


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	6846,1	3019,4
Buxoro viloyati		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3969,0	1712,8
Olot		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2638,6	1722,6
Peshku		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1903,3	1675,4
Buxoro		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	5484,2	2103,3
Romitan		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2211,4	1924,5
Vobkent		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3594,9	2892,8
Jondor		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3237,8	2189,7
G'ijduvon		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2748,2	1691,2
Shofirkon		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	9810,5	4997,7
Kogon		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	6426,8	3982,4
Buxoro sh.		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2535,8	1417,8
Qorako'l		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	9376,9	3771,4
Kogon sh.		


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	294853,4	62817,5
Qorovulbozor		

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2021- yil yanvar-sentyabr, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5380,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,1 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Jondor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Vobkent (99,9 %), Buxoro (99,6 %), Kogon (98,4 %), hamda Shofirkon (86,5 %) tumanlarida kuzatildi.



Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Qorovulbozor tumani (1,7 %) va Kogon shahri (42,1 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- oktyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4954 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1332 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,9 % i) Buxoro shahriga, 612 tasi (12,4 % i) G'ijduvon tumaniga, 385 tasi (7,8 % i) Buxoro tumaniga, 378 tasi (7,6 % i) Kogon tumaniga, 349 tasi (7,0 % i) Jondor tumaniga, 339 tasi (6,8 % i) Romitan tumaniga, 308 tasi (6,2 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2020- yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatda 911 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 166 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 18,2 %) Buxoro shahrida, 116 tasi (12,7 %) G'ijduvon tumanida, 76 tasi (8,3 %) Shofirkon tumanida, 73 tasi (8,0 %) Buxoro tumanida, 72 tasi (7,9 %) Romitan tumanida tashkil etildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 76 ta loyiha bo'yicha 1253,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 12,7 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021- yil yanvar-sentyabr oylarida 451 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 187,1 % ni tashkil etdi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari **(mlrd. so'm)**

	2020- yil yanvar-sentyabr	2021- yil yanvar- sentyabr
Loyihalar soni, birlik	19	76
Korxonalar soni, birlik	16	98
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	974,1	1253,0
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollar	2,8	12,7
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	241	451